

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK QISHLOQ XO‘JALIGI MUTAXASSISLARINING AGROPEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Sultanov Yelimbet Kalimbetovich

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

“Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va suv xo‘jaligi” fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, texnika fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. Agrar ta’limni transformatsiyalash va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish sharoitida agrar oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini qayta ko‘rib chiqish zarurati ortib bormoqda. Maqolada zamonaviy ta’lim talablari asosida agropedagogik kompetensiyalar tuzilmasi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va shakllantirish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalt so‘zlar. Agrar ta’limi, transformatsiyalash, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qituvchi, zamonaviy ta’lim talablari, agropedagogik kompetensiya, tuzilma.

Аннотация. В условиях трансформации аграрного образования и внедрения компетентного подхода возрастает необходимость развития профессиональных компетенций преподавателя. В статье анализируется структура агропедагогических компетенций, их специфика и способы формирования с учетом современных требований образования.

Ключевые слова. Аграрное образование, трансформация, компетентный подход, педагог, современные образовательные требования, агропедагогическая компетентность, структура.

Annotation. In the context of the transformation of agricultural education and the introduction of a competency-based approach, the need to develop professional competencies of a teacher increases. The article analyzes the structure of agro-pedagogical

competencies, their specificity and methods of formation, taking into account modern educational requirements.

Key words. Agricultural education, transformation, competency-based approach, teacher, modern educational requirements, agro-pedagogical competence, structure.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha mo'ljallangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida raqamli va axborot texnologiyalari ko'nikmalariga ega, mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy intellektual va moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishda raqamli va axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahondagi yirik o'quv tajriba-sinov laboratoriyalarida ta'lim ko'rsatkichlarini tanlash asosida professional ta'lim sohasini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Shimoliy Illinoys universitetida mintaqa uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ikkita amaliy ta'lim dasturi («IERN», «KIDLINK») amalga oshirildi.

Bundan tashqari, Yevropaning Vageningen University and Research Centre (Gollandiya) va Swedish University of Agricultural sciences (Shvesiya) kabi universitetlarida kasbiy tayyorgarlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni qo'llashga ustuvor ahamiyat berilib, ehtiyojga asoslangan kasbiy tayyorgarlikning uzluksizligiga ustuvorlik berilmoqda.

Zamonaviy agrar ta'lim raqamlashtirish, ekologik o'zgarishlar va globallashtirish muammolariga duch kelmoqda. Agrar oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi nafaqat chuqur fan bilimlariga, balki ta'lim jarayonini tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchining kasbiy sifatlarini shakllantirishda asosiy bo'lib, zamonaviy agrar sohada samarali faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish, ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan qishloq xo'jaligi xizmatlarini

ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi sohaning investitsion jozibadorligini kafolatlash, o'qitilgan mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratishdir.

Maqsad qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangi usullarini yaratish, buning uchun esa kadrlar tayyorlash mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tartibini yaratishdan iborat. ...“qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim ustuvor sharti - sohaning investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlash va malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishdir” [1].

Agrar ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarda bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Agrar ta'limda bu zamonaviy texnologiya va usullardan foydalangan holda real ishlab chiqarish muammolarini hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashni anglatadi. O'qituvchi, o'z navbatida, bunday ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradigan kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak [2].

Virtual ta'lim muhiti ta'lim jarayonining sifatini oshirish, uni innovatsion mazmun bilan to'ldirish, talabalarda yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida IT-texnologiyalarni qo'llash sohalariga quyidagilar kiradi: “aqlli dehqonchilik”; “aqlli fermalar”; “aqlli issiqxonalar va xomashyoni boshqarish”; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash; qishloq xo'jaligi texnikalaridan samarali foydalanish; “Big Data” va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi mutaxassislari majburiy fanlarni o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini egallab, ushbu texnologiyalarni amaliyotda qo'llash va yangi loyihalarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Virtual muhitda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi mutaxassislarni o'qitish faoliyatiga qaratiladi. Shu maqsadda xorijiy mamlakatlar, AQSh, Yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi mutaxassislarni tayyorlash tendensiyalari aniqlangan [6].

AQShda bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari ma'lum talablar qo'yiladi: qishloq xo'jaligi mutaxassislari tomonidan murakkab muammolarni insonlar uchun ijtimoiy oqibatlar va ekologik xavfsizlikni hisobga olgan holda hal qilishni loyihalashtirish

kompetensiyasi; kasbiy muammolarni hal qilish uchun jamoaning individual a'zolari, hamkasblar guruhi bilan ishlash kompetensiyasi va boshqalar.

Yevropada bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kasbiy faoliyatiga quyidagi talablar qo'yiladi: qishloq xo'jaligi mutaxassislarining muammolarni hal qilish uchun ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish kompetensiyasi; inson hayoti uchun xavfsiz muhitni yaratishda qishloq xo'jaligi mutaxassislarining fikrlashidan foydalanish; qishloq xo'jaligi mutaxassislarining soha muammolarini hal qilishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqishga tayyorligi; ularga erishish uchun maqsadlar va strategiyalarni ishlab chiqish kompetensiyasi va boshqalar.

O'zbekistonda bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislariga quyidagi talablar qo'yiladi: fanlararo bilimlarni to'plash kompetensiyasi; kompyuter texnologiyalari va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish va ma'lumot olish kompetensiyasi, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlari; qishloq xo'jaligi mutaxassislari tomonidan muammolarni ijodiy, kasbiy hal qilish kompetensiyasi; butun umr davomida o'qish kompetensiyasi, virtual texnologiyalar yordamida kasbiy muammolarni hal qilish va mehnat bozori talablariga javob berish qobiliyati.

Agropedagogik kompetensiyalar tuzilmasi. Agrar oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisining agropedagogik kompetensiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

-Umumkasbiy kompetensiyalar: pedagogik loyihalash qobiliyati, metodik savodxonlik, agrar fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish qobiliyati;

-Maxsus kompetensiyalar: agronomiya, zootexniya, agromuhandislik va boshqa ixtisoslik fanlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish hamda ushbu bilimlarni ta'lim jarayoniga joriy eta olish;

-Raqamli kompetensiyalar: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, ta'limda raqamli resurslar va platformalardan foydalana olish;

-Tadqiqotchilik kompetensiyalari: agrar fanlar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalarini ta'lim jarayoniga joriy etish qobiliyati;

-Kommunikativ kompetensiyalar: talabalar, hamkasblar va agrar soha vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati.

Tadqiqot jarayonida ilmiy pedagogik yondashuv va kasbiy kompetentlikni shakllantirish mezonlari asosida kasbiy kompetentlik darajalari aniqlandi, bunda simulyatsion, virtual texnologiyalar (grafik vizuallashtirish va 3D model), Personalised Learning (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) texnologiyasidan foydalanildi. Shaxsni rivojlantirish va ushbu sohada mashinalardan foydalanishga texnik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan Personalised Learning virtual ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida qishloq xo'jaligi mashinalaridan samarali foydalanishga erishildi. Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kasbiy kompetentligini simulyatsion, virtual va Personalised Learning texnologiyalari asosida takomillashtirishda qo'llanilgan metodikaga tayangan holda ulardan foydalanish metodikasi takomillashtirildi [7].

“Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)” ta'lim yo'nalishida “Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish” fanidan ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, amaliyot, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari didaktik ta'lim vositalari (kompyuter o'qitish tizimlari va dasturlari, elektron monitoring, multimediali o'quv mashg'ulotlari, pedagogik dasturiy vositalar, simulyatsion, virtual texnologiyalar (grafik vizuallashtirish va 3D model) yordamida o'tkazildi. Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kasbiy kompetentligini virtual texnologiyalar asosida takomillashtirishning kasbiy tayyorgarlik darajalari hamda kognitiv, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, motivatsion mezonlari aniqlandi [7].

Agropedagogik kompetensiyalarni shakllantirish. Agropedagogik kompetensiyalarni shakllantirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Malaka oshirish: kasbiy bilim va ko'nikmalarni yangilashga qaratilgan kurslar, seminarlar va treninglarda ishtirok etish;

- Ilmiy-tadqiqot faoliyati: o'qituvchilarni ilmiy loyihalarga jalb qilish, bu esa tadqiqot va tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi;

- Amaliyot va nazariya integratsiyasi: o'quv jarayonini agrar ishlab chiqarishning real sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etish, amaliy mashg'ulotlarni qishloq xo'jaligi korxonalari bazasida o'tkazish;

- Raqamli texnologiyalardan foydalanish: ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot tizimlari, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalarni joriy etish.

Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining agropedagogik kompetensiyalariga quyidagi mualliflik ta'rifini berdik. Agropedagogik kompetensiya har bir bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassisining kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'qitish vositalari va usullarini, talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat shakllarini tanlashga, talabalarda kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bois, qishloq xo'jaligi oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" fanini o'qitishda simulyatsion va virtual (grafik vizuallashtirish va 3D model) texnologiyalarning didaktik vositalaridan, xususan, internet xizmatlaridan foydalanish bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Mutaxassislarni tayyorlashda agropedagogik kompetensiyalarning o'ri. O'qituvchining agropedagogik kompetensiyalari agrar oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini tayyorlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular quyidagilarni ta'minlaydi:

-Ta'lim jarayonining dolzarbligi: ta'lim mazmunining agrar sohaning zamonaviy talablariga mosligi.

- O'qitishning amaliy yo'nalishi: talabalarda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish.

- Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: agrar sohadagi o'zgarishlarga tezda javob berish va ta'lim jarayonini shunga moslashtirish qobiliyati.

Xulosa. Agrar ta'limda kompetensiyaviy yondashuv agrar oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisidan o'ziga xos agropedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi. Ularni shakllantirish va takomillashtirish zamonaviy agrar ishlab chiqarish sharoitida samarali ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Указ Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года ПП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы». <https://lex.uz/docs/4567334>.

- 2.Тарасова Н.В. Стратегия реализации компетентного подхода в образовании: историко-педагогический аспект // Аналитические обзоры по основным направлениям развития высшего образования. – 2007. – № 1.
- 3.Шестак Н.В., Шестак В.П. Компетентный подход в дополнительном профессиональном образовании // Высшее образование в России. – 2009. – № 3. – С. 29–38.
- 4.Восковская Е.В. Педагогическая компетентность преподавателя вуза // Известия МГТУ “МАМИ“. – 2010. – № 2.
- 5.Якупова О.В. Актуальные подходы к построению современной модели компетенций преподавателя вуза // Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России. – 2016. – Т. 5, № 4. – С. 40–43.
- 6.Sultanov E.K., On the Issues of Preparing Agricultural Specialists for Professional Activities. International journal of formal education Volume: 3 Issue: 11 | Nov–2024 ISSN: 2720-6874. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>.
- 7.Султанов Е.К., Совершенствование методики подготовки к профессиональной деятельности будущих специалистов сельского хозяйства на основе компетентного подхода. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора (DSc) педагогических наук. Ташкент. 2024 г. 64 стр.